



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING
Q A R O R I**

2026-yil 1-aprel

№ 2113

**O‘zbekiston Respublikasining ayrim sudlariga
sudyalarni tayinlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Jurayev Baxodir Abdimurodovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Latipov Zafar Xasanovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Yunusobod tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Qlichev Orif Allayorovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Uchtepa tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Omonov Botiralibek Bahrom o‘g‘li – sudyalik vakolati muddati davriga Namangan viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Uychi tuman sudining tergov sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Suvanova Shaxnoza Eshpulatovna – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Yangiyo‘l tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Chirchiq tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Maxammadiyeva Latofat Asqarovna – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Qashqadaryo viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Shahrisabz tumanlararo sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Qashqadaryo viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Qarshi tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Tadjibayev Dilshod Sultanmuratovich – sudyalik lavozimida bo‘lishning muddatsiz davriga Andijon viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga tayinlansin;

Opayeva Dilfuza Urazaliyevna – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Chirchiq tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga tayinlansin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov

QQQ2836

QQQ2836

QQQ2836

QQ